

Q'ZBEKISTON TARIXINI O'RGANISHDA TURKIYA ILMIY MARKAZLARI VA TURK MATBUOTINING O'RNI

*Toshev Solejon Ahmatjonovich, Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti*



<https://orcid.org/0009-0004-7224-1628>

e-mail:

toshevsolijon504@gmail.com

THE ROLE OF TURKISH SCIENTIFIC CENTERS AND THE TURKISH PRESS IN STUDYING THE HISTORY OF UZBEKISTAN

*Toshev Solejon Ahmatjonovich, he is a doctoral student at the
Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni*

РОЛЬ ТУРЕЦКИХ НАУЧНЫХ ЦЕНТРОВ И ТУРЕЦКОЙ ПРЕССЫ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

*Тошев Соледжон Ахматжонович, докторант института
Востоковедения имени Абу Райхана Беруни*

Annotatsiya: Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgandan so'ng, mintaqa xalqlari tarixi va madaniyatiga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi. Turkiyada O'zbekistonning eng yangi tarixini milliy tarixshunosligimizda o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan masalalari ilimy markazlar tomonidan tadqiq qilinishi, O'zbekistonda bo'layotgan izchil o'zgarishlar va yangilanish jarayonlari turk matbuotida yoritilishi O'zbekiston tarixini xorijiy tadqiqotchilar nigohidan tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur maqolada shu jihatlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, O'zbekiston, Turkiya ilmiy markazlari, Turk o'choqlari, Turk dunyosi tadqiqotlari fondi, Turk milliy madaniyat jamg'armasi vaqfi, Turk milliy madaniyati tadqiqoti instituti, TIKA, TASAM, SASAM, TÜRKSÖY.

Abstract: After the independence of the Central Asian republics, the interest in the history and culture of the peoples of the region increased. In Turkey, research of the most recent history of Uzbekistan in our national historiography, unstudied or little-studied issues by scientific centers, coverage of consistent changes and renewal processes in Uzbekistan in the Turkish press, makes it possible to analyze the history of Uzbekistan from the perspective of foreign researchers. gives These aspects are analyzed in this article

Key words: Scientific centers of Central Asia, Uzbekistan, Turkey, Turkish Hearths, Turkish World Research Fund, Turkish National Cultural Fund Foundation, Turkish National Culture Research Institute, TIKA, TASAM, SASAM, TÜRKSÖY.

Аннотация: После обретения независимости среднеазиатскими республиками возрос интерес к истории и культуре народов региона. В Турции исследование новейшей истории Узбекистана в нашей отечественной историографии, неизученных или малоизученных вопросов научными центрами, освещение последовательных изменений и процессов обновления в Узбекистане в турецкой прессе позволяет проанализировать историю Узбекистана с точки зрения зарубежных исследователей. Эти аспекты анализируются в данной статье.

Ключевые слова: научные центры Центральной Азии, Узбекистан, Турция, Турецкие очаги, Фонд исследований тюркского мира, Фонд Турецкого национального культурного фонда, Турецкий научно-исследовательский институт национальной культуры, ТИКА, ТАСАМ, САСАМ, ТЮРКСОЙ.

KIRISH. Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgandan so'ng, mintaqa xalqlari tarixi va madaniyatiga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi. G'arbda Germaniya, Fransiya, Angliya, Rossiya Federatsiyasi, Amerika Qo'shma Shtatlarida, Sharq davlatlaridan Hindiston, Eron, Xitoy, Turkiya kabi davlatlarda O'zbekistonning eng yangi tarixi bilan maxsus shug'ullanuvchi ilmiy markazlar vujudga keldi[1]. Bu markazlarda O'zbekistonning eng yangi tarixining milliy tarixshunosligimizda o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan masalalari tadqiq qilinmoqda, bu davrga yangi nuqtayi nazar va talqin bilan yondashilmoqda. Jumladan, Turkiyada ham, O'zbekiston tarixiga, ayniqsa mustaqillik yillaridagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarga nisbatan katta ilmiy qiziqishni ko'rishimiz mumkin.

Sovetlar boshqaruvi davrida Turkiyada Markaziy Osiyo Respublikalari bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli bo'lmagani uchun ilmiy bo'shliq yuzaga kelgan edi. Biroq, Respublikalar mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab Turkiyada mintaqa bilan bog'liq barcha sohalaridagi aloqalarni kengaytirish maqsadida ham davlat, ham nodavlat tashkilotlar va ilmiy markazlar tashkil etildi. Ushbu muassasalar davlatga bog'liq rasmiy tashkilotlar, universitetlar qoshidagi ilmiy tadqiqot markazlari, xayriya jamg'armalari, fondlar va jamoat tashkilotlari sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. 1991-yildan oldingi yillarda Turkiy xalqlar madaniyati va tarixini tadqiq etish bilan shug'ullangan Turk o'choqlari (Türk Ocakları), Turk dunyosi tadqiqotlari fondi (Türk Dünyası Araştırmaları Vakfı), Turk milliy madaniyat jamg'armasi vaqfi (Türkiye Milli Kültür Vakfı), Turk milliy madaniyati tadqiqoti instituti (Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü) kabi rasmiy va nodavlat muassasalar mavjud edi[2]. Bularndan tashqari, diniy maqsadlarda ya'ni, turkiy xalqlar o'rtasida islom dinini targ'ib etishni maqsad qilgan nodavlat tashkilotlar ham bor edi. Ular orasida Turkiya Diyonat jamg'armasi (Türkiye Diyanet Vakfı), Islom fanlari tadqiqot jamg'armasi (Islami Ilimler Araştırma Vakfı), Hazrat Aksemseddin

jamg'armasi (Hz. Aksemseddin Vakfı), Ilm-fanni tarqatish fondi (Blim Yayma Vakfı), Haq yo'l fondi (Hakyo'l Vakfı) kabilarni alohida sanash mumkin[3].

NATIJALAR. 1991 yildan so'ng Markaziy Osiyoda yangi mustaqil respublikalarning paydo bo'lishi Turkiyada mintaqaga qiziqishning ortishi bilan bir qatorda, yuqorida aytib o'tganimizdek, siyosiy, iqtisodiy, savdo va madaniy aloqalarning faollashuviga yo'l ochib berdi. Turkiya uchun mintaqa davlatlarining tarixi, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli, yer osti boyliklari, salohiyati va strategiyasi haqida ma'lumot beradigan ilmiy tadqiqot institutlarga ehtiyoj bor edi. Buning natijasida Turkiyada Markaziy Osiyo, shu jumladan O'zbekisonga oid tadqiqot olib boruvchi markazlar, ilmiy tadqiqot institutlari va nodavlat tashkilotlar ko'rinishidagi ko'plab muassasalar tashkil etildi. Davlat tomonidan tashkil etilgan institutlar va ilmiy markazlar mintaqadagi yangi mustaqil mamlakatlarning rivojlanishiga yordam berish, mintaqa haqida funksional ma'lumotlar va ilmiy axborotlar olish uchun xizmat qilgan bo'lsa, universitetlar qoshidagi mamlakatshunoslikka ixtisoslashgan bo'limlar va markazlarda O'zbekistonga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

MUHOKAMA. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning faollashishi ko'plab xalqaro kongresslar, simpoziumlar va mintaqaviy maxsus tadqiqotlarni o'tkazishni tezlashtirdi. Shu nuqtayi nazardan, mintaqaviy ixtisoslashgan nashrlarning soni va faoliyat ko'lami jadallik bilan kengaydi[4]. Avrasya Dosyasi (Evrosiyo hujjatlari), Avrasya Etüdləri (Evrosiyo tadqiqotlari), Anayurttan Atayurtda Türk Dünyası (Onayurtdan Otayurtgacha Turk dunyosi), Bilig (Bilig), Türk Lehçeleri ve Edebiyatı Dergisi (Turk shevalari va adabiyoti jurnali), Kardes Edebiyatlar (Birodarlar adabiyoti) kabilar shular jumlasidandir. Yana bu davrda ilmiy markazlar tomonidan nashr etilgan ensiklopediyalar, antologiyalar, lug'atlar, rasmiy hisobotlar va qo'shma bayonotlarda O'zbekiston haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Shu nuqtayi nazardan, Otaturk tadqiqot markazi (Ataturk Araştırma Merkezi), Turkiya hamkorlik va taraqqiyot agentligi (TIKA) kabi davlat tashkilotlarining O'zbekiston haqidagi

maxsus nashrlarida mustaqillik yillaridagi o'zgarishlar dinamikasi tahlil etilgan. Turkiya Respublikasida o'zaro munosabatlardagi tiktonik o'zgarishlarga qaramasdan O'zbekistonni kompleks o'rganishga qaratilgan fundamental tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Turkiyadagi SASAM (Sahipkiran Stratejik Araştırmalar Merkezi), TASAM (Türk Asya Stratejik Araştırmalar Merkezi) va Orta Asya Araştırmaları Merkezi kabi tahliliy markazlar materallari va Bayram Balci, Necati İyikan kabi tadqiqotchilarning tadqiqotlari bunga misol bo'la oladi[5].

Markaziy Osiyo davlatlarini o'rganishga ixtisoslashgan Turkiya ilmiy va aql markazlarini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

1. Davlat tomonidan tashkil etilgan yoki moliyalashtiriladigan ilmiy muassasalar (masalan: TİKA, TÜRKSOY, ECO, Türk-PA);

2. Universitetlar qoshida tashkil etilgan ilmiy markazlar;

3. Mustaqil va notijorat tahlil markazlari (masalan: ASAM, TASAM, USAK, KÖKSAV, TÜRKSAM);

4. Nodavlat tashkilotlar (jamg'arma, vaqf va fondlar);

Turkiyada davlat muassisligidagi Markaziy Osiyo respublikalari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatish va bu aloqalarni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan va moliyalashtiriladigan eng faol institutlar TİKA, TÜRKSOY, ECO, Türk-Pa hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot davomida 1991-2022 yillar oralig'ida Turkiyada nashr etilgan gazetalarda O'zbekistonga oid yangiliklar tahlil qilindi. Turkiya-O'zbekiston munosabatlarining borishi va mazmuni gazeta xabarlarida ham o'z aksini topgan. Shu nuqtayi nazardan, keyingi davrda ikki tomonlama munosabatlarning kuchayishi natijasida O'zbekiston haqidagi xabarlar Turkiya matbuotida ko'proq joy olgani ko'rinib turibdi. Xabarning miqdori va sifatini hisobga olsak, Turkiya-O'zbekiston munosabatlariga e'tibor qaratilayotgan masalalarni ham kuzatish mumkin. 1991-1993-yillarda Turkiya matbuotida O'zbekistonga oid turkum maqolalar va sayohat xotiralari asosiy o'rinda ekani aniqlandi. Aytish mumkinki, mintaqa davlatlari va mustaqillikdan so'ng O'zbekistonni dunyoga tanitish zarurati ushbu sayohat va turkum maqolalarda asosiy omil bo'ldi. "Osiyo turkiy

respublikalari va Turkiya", "Kaspiy dengizidan Issiqko'lga qadar turk xalqlari", "Osiyo yarim oy turk yulduzi", "O'rta Osiyo va Kavkaz respublikalari Kaspiydan Tyanshangacha bo'lgan yangi shakllanish jarayonida", "Yangi turkiy dunyo va demokratiya", "Yangi respublikalar va Turkiya" va "XXI asr bo'sag'asidagi turk jumhuriyatlari" kabi sarlavhali maqolalar turkumida yangi davr va yangi jumhuriyatlar bilan tanishishga oid izlanishlar aks ettirilgan[6]. Bu maqolalar mualliflari orasida Mehmet Turgut, Nur Batur, Chingiz Chandar, Bilal N.Shimshir, Fuat Bozkurt, Ardan Zenturk kabi davrning taniqli jurnalistlari qatorida Bulent Ejevitning borligi diqqatga sazovordir. Keyingi davrda, ya'ni 2000-yillarning birinchi yarmigacha Turkiya-O'zbekiston munosabatlari, ayrim yillarda ochilishga urinishlarga qaramay, salbiy yo'l tutdi va bu holat turk matbuotidagi xabarlarida ham o'z aksini topdi. 2016-yilda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Karimovning vafoti va undan keyingi voqealar, o'sha yili Prezident Erdo'g'onning O'zbekistonga tashrifi yuqorida tilga olingani matbuotda keng yoritildi[7].

2022-yil 24-oktabr kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlar ham ushbu mintaqa matbuotining diqqat markazida bo'ldi. Turkiya matbuotida saylov jarayonlari faol yoritildi. Mamlakatdagi yetakchi nashrlarning har biri, jumladan, Turkiyaning "Hürriyet", "Milliyet", "Sözcü", "Sabah", "Yeni Şafak" singari mamlakat bo'ylab katta adadda tarqatiluvchi 30 dan ortiq gazetalarida O'zbekistondagi saylov mavzusi tez-tez tilga olindi. Xususan, Turkiyadagi kundalik gazetalar orasida eng nufuzlisi – "Hürriyet"da 5 ta maqola e'lon qilinganining o'ziyoq, Turkiya matbuotini O'zbekistondagi saylov jarayonlari nechog'li qiziqtirganini ko'rsatib turibdi[8].

"Yeni Şafak" gazetasi saylov jarayonlarini yoritib borish bilan birga O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini sharhlovchi maqola e'lon qildi. Xususan, gazetaning 2022-yil 10-sentabr sonida so'nggi besh yil ichida Sh.Mirziyoev rahbarligida qo'lga kiritilgan yutuqlar va ularning natijalari borasidagi fikrlar bayon qilingan. "O'zbekiston, Markaziy Osiyoning yuragi va taqdiri[10]" sarlavhali maqolada mamlakatning mintaqa va umumturk dunyosidagi o'ziga xos o'rni alohida e'tirof etilgan. Maqola muallifi – professor Yücel Oğurlu 30 yildan buyon Markaziy Osiyo

davlatlari, jumladan, O'zbekistondagi jarayonlarni diqqat bilan kuzatib kelishini, so'nggi besh yil ichida mamlakatda juda katta o'zgarishlarga guvoh bo'layotganini ta'kidlaydi.

XULOSA. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi Turkiya ilmiy doiralarida katta qiziqish bilan qarshilandi. Mustaqillik natijasida ikki tomonlama ilmiy aloqalarning tiklanishi va rivojlanishi turk tadqiqotchilarini O'zbekistonni o'rganishga imkoniyat berdi. Ilmiy markazlarda mintaqadagi barcha o'zgarishlarga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirildi, tahliliy materiallar tayyorlandi va e'lon qilindi. Turkiya matbuotida O'zbekiston mavzusi alohida o'ringa ega bo'ldi. 2017-yildan boshlab mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarning yangi bosqichga ko'tarilishi O'zbekistonni o'rganish, tanish va tanitish bilan bog'liq ilmiy faoliyat ham yangi bosqichga ko'tarildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. SH.S.Kamoliddin. Markaziy Osiyo tarixi zamonaviy tarixshunosligidagi yondashuvlar. T.: Fan ziyosi nashriyoti, 2023. – 200 b.
2. Ainur Yerbolayeva. Turkiye'de Orta Asya ile Ilgili Araştırma Yapan Kurumlar. Yüksek Lisans Tezi. Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Sosyoloji Anabilim Dalı. İstanbul. 2009.

3. H.A.Karasar, Türkiye'de Stratejik Düşünce Kültürü ve Stratejik Araştırma Merkezleri: Başlangıcından Bugüne Türk Düşünce Kuruluşları, Nobel Yayınları, Ankara, Şubat-2009, içinde s.362.
4. Nadir Devlet, "Türkiye'nin Avrasya'ya Yönelik Kültür Politikaları", Türkiye'nin Avrasya Macerası (1989-2006) (Avrasya Üçlemesi II),s. 205, Nobel Yayın Dağıtım. Ankara, Eylül 2007, s. 209-211.
5. Sh.Ikramov. Arab tahlil markazlarida O'zbekiston mavzusi: stereotiplar va transformatsiya.
6. Özbekistan Tika Projeleri Tanitim Kitapçığı. TİKA. Özbekistan. 2018.
7. <https://tika.gov.tr/avrasya-etudleri/tum-sayilar> (03.06.2024 yil).
8. Tayfun Atamaca, "Teknik Yardım Projelerinin Hazırlanması, Uygulanması, İzlenmesi ve Değerlendirilmesi", Uzmanlık Tezi, T.C Basbakanlık Türk İşbirliği ve Kalkınma İdaresi Başkanlığı, Ankara 2004, s.104.
9. <https://www.yenisafak.com/dusunce-gunlugu/ozbekistan-orta-asyanın-kalbi-ve-kaderi-3701632>.
10. <https://www.yenisafak.com/dusunce-gunlugu/ozbekistan-orta-asyanın-kalbi-ve-kaderi-3701632>.
11. <https://www.yenisafak.com/dusunce-gunlugu/ozbekistanda-buyuk-reformlar-ve-parlak-gelecek-3709520>.
12. <https://www.posta.com.tr/turkiyeden-ozbekistan-secimleriyle-ilgili-aciklama-2391419>.

